

APRIL 27-28, 2023

XORAZM TOPONIMIKASINING SEMANTIK VA ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

¹Sobirov Javoxir Xayrulla o‘g‘li, ²Shukurullayeva Nodira Qahramon qizi

¹Urganch davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi,
Tel: +998930901912, Sabirovj75@gmail.com

²Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich
talabasi, Tel: + 998994289179, Nodirashukurullayeva6@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7864679>

***Abstract.** This article provides information on the issues of the spiritual characteristics and origin of the Stallions of the Khorezm region, studied from sources. You can also get acquainted with the analysis of a number of literature on the current civilization in the Khorezm region and the issues associated with it.*

***Keywords:** toponym, ethnography, ethnotoponym, dialect, toponymy, civilization.*

KIRISH. O‘zbekistonda ayrim joy nomlari va toponimlarning yuzaga kelish tarixi, qanday ma‘no anglatishi, xalqimiz tarixining qaysi darida, kimlar tomonidan, qachon va qay tarzda yaratilganligi haqidagi g‘oyat qiziqarli ma‘lumotlar Mahmud Koshg‘ariy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Batuta, Muhammad Haydar, Rashididdin, Alisher Navoiy, Abulg‘ozi Bahodirxon kabi olim, muarrix va adiblarning asarlarida mavjuddir. Ayniqsa, qadimgi Xorazm vohasida yashovchi xalqlar tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ma‘naviy madaniyati, tili, yozuvi, urf-odati va turmush tarsi haqidagi qimmatli ma‘lumotlar qadimgi arab, chin, yunon, lotin, arman manbalarida, SHarq mamlakatlari sayyoh va muarrixlarining asarlarida o‘z aksini topgan. Xorazm ko‘p qirrali va boy tarixga ega. Hali uning o‘rganilmagan sahifalari juda ham ko‘p. Xorazmda davlatchilikning shakllanishi haqida dastlabki ma‘lumotlarni zardushtlarning muqaddas kitobi bo‘lmish “Avesto” dan va ulug‘ bobomiz Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” nomli bebaho asaridan va boshqa manbalardan topishimiz mumkin.

Xorazm toponimlari uzoq tarixiy davrning mahsuli bo‘lib, ma‘lum xalqning tarixini, madaiyatini, tilini, etnik tarkibini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Xorazm vohasining bugungi aholisi ota-bobolari mansub bo‘lgan urug‘-qabila nomarining aksariyatini unutilib yuborganlar. Ammo bu etnik nomlarning asosiy qismi toponim sifatida saqlanib qolgan. Xorazm vohasi hududida o‘zining til xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi o‘g‘uz lahjasi vakillari yashaydi. Toponimlar tarkibida ham ana shu ikkita etnik guruh o‘g‘uz va qipchoq qabilalari ittifoqiga kirgan urug‘ nomlari bilan yuritiluvchi joylar anchagina.

ASOSIY QISM. "Xorazm" nomi (toponimi) Avestoda Xvarizem, qadim forsiychada Xvarazmish, lotinchada Chorasmia va yunonchada Xorazmiya deb yuritilgan. Arabcha yozma manbalarda bu hudud Xvorazm talaffuzida tilga olinadi.

"Xorazm" nomining semantikasi haqida bir qancha fikrlar mavjud. S.P. Tolstov "Xorazm" nomi "Quyoshli o‘lka", "Quyoshli yer" deb atalishi haqiqatga eng yaqin etnonimdir deb ta’kidlasada, Xorazmni "Xvarri yoki Xarri (Xurriy) xalqi vatani", "quyosh (xalqi) zamini" deb izohlaydi. Sug‘dshunos olim M. N. Bogolyubovning fikricha, Xorazm alohida 3 ta so‘zdan tarkib topgan. Xu (Xush, Xash), var (vara) va zm (zim, zem). Eroniy tillarda Xu —"yaxshi" "ma‘qul", var(vara) — "devor", "marza", "fob", "qal‘a", "qo‘ra" degan ma‘nolarni bildirgan. Zm (zim, zem) esa — "zamin", "hudud", "diyor", "mamlakat" kabi ma‘nolarni anglatgan.

APRIL 27-28, 2023

Avestoning "Yasht" qismida Xorazm "Ming irmoqli daryo", "Ko'llar va o'tloqlarga boy o'lka" sifatida madh etiladi. Qadimiy Xorazm hududi tabiiy jihatdan 2 mintaqaga ajralgan. Uning shimoliy qismida Amudaryo etaklarida behisob sersuv o'zanlar, shimoliy va shimoliy sharqqa tomon yastangan keng yaylovlardan iborat bepoyon pastekisliklar, uning janubiy qismida esa, Murgob va Tajan daryolari vodiylarining kattagina qismi tog' va adirliklar va ulardan bo'sh qolgan katta-kichik daryo jilg'alar etaklarida yuzaga kelgan hosildor yerlar joylashgan.

Xorazm nomining va aholisining kelib chiqishi haqida xarhil afsonalar bor. Ulardan eng qiziqarlisi X asrda yashagan Arab geografi Al-Masudiy quyidagicha afsona yozib qoldirgan: "Qadimgi zamonda Sharqdagi podshohlardan biri yaqin xizmatchilaridan 400 odamdan arazlab ularni aholi yashaydigan joydan 600 km uzoqqa hozirgi Beruniy tumani hududlariga chiqarib yuborishadi. Uzoq vaqtdan keyin podshoh xizmatchilarining ahvolidan xabar olish uchun odam yuboradi. Qaytib kelgach podshohga aytadi ularning tirik ekanligi kanallar qazib, baliq tutib tirikchilik qilayotganligini va o'tin cho'plarning ko'p ekanligini aytadi. Podshoh buni eshitib ular go'shtni nima deb atashadi deb so'rabdi. Shunda borib kelgan odam aytibdi "Xar" yoki "Xvar" deb javob beribdi. Keyin podshoh men ularga shu joyni berdim va u joyga "Xvarazm" deb nom beraman debdi va ularga 400 nafar turk ayol-qizlarni berishlarini buyuribdi va shu tariqa Xorazm nomi va aholisi kelib chiqibdi" deb rivoyat qilinadi.

Turli hududlarning geografik nomlari toponimlarni xosil qiladigan mahalliy geografik terminlarga, ya'ni toponimik indikatorlarga qarab boshqa yerlarning joy nomlaridan farh hiladi. Xorazm viloyatida indikatorlar xilma-xildir. Boshqa xududlarda deyarli uchramaydigan indikatorlarni uchratishimiz mumkin.

Alang ("ekinga yaroqsiz yer", "eski ariq", "anhor yo'li"): Alanglik, Kichchialanglik, Ullialanglik, Qoraalang;

Atav (orol): Kichchiatav, Ulliataav, Shamining atavi, Kamishliatav.

Arna (katta kanal): Arnasaqa, Otaliqarna, Paxtaarna, Polvonarna, Shovotarna. Xorazmcha bu so'z haqida V.V.Bartold bunday degan: "X- asrda ham Xorazm xalqi boshqa eronliklar tushunmaydigan va xatto yozma xujjatlarda ishlatiladigan o'z ona tilida gaplashar edi" aftidan bu tilni keyinchalik fors tili emas, balki turk tili (turkiy til) surib chiqargan. Sug'orish soxasidagi ba'zi bir terminlar (*arna* - "katta kanal", *yop* - "kichik kanal"), shubxasiz xorazmiy tilining qoldig'idir. *Arna* so'zi boshqa xududaarda ham ma'lum: Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida "jar", "quruq uzan"; Shimoliy Qozog'iastonda - "daryo", Janubiy O'zbekistonda - "dara", Shimoliy Kavkazda - "buloq".

Yop ("ariq", "kichik kanal"): Bo'zyop, Oyoqyop, G'ovikyop, Kaltayop, Kattayop, Katyop, Kinikyop, Qo'lyop, Mangityop, Kumyop, Kizilyop va boshkdlar.

Yormish ("kichik ariq"): Bo'zyormish, Yormish, Kichchiyormish, Ulliayormish;

Yosqa ("kechuv"): Yomutyosqa, Machityosqa, Uzunyosqa, Kumyosqa;

Saqa-sag'a ("suv qulochi - suv og'zi, ya'ni kanalning boshi"): Arnasaqa, Toshsaqa;

Solma ("kichik ariq"): Begansolma, Botilsolma, Bo'zsolma, Oyoqsolma;

Qayir ("kanal yoki suv tarmogi yoqasidagi nam tekkan yumshoq, qumloq, yer"): Bungiqayir, Tumanqayir, Kiblaqayir.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, tarkibiy-etimologik jihatdan tahlil qilish etnik nomlarining shakllansih qonuniyatlarini ochish imkonini beradi, toponimik sistemada etnik

nomlar ancha barqaror bo‘ladi. Joy nomi sifatida ular juda uzoq muddat saqlanishi mumkin. Ularning har biri qadimiy tarixga ega. Toponimlarni to‘plab tadqiq qilish madaniyat va ma’naviyatimizning turli yo‘nalishlari bo‘yicha keng qamrovli izlanishlar olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgrolilar. – T: “Fan”, 1968.
2. Abulg‘oziy Bahodirxon. Shajarayi tarokima. – T: “Cho‘lpon”, 1995.
3. M. Matniyozov, A. Sotliqov. Jahon tarixi va madaniyatida Xorazm”. “Xorazm”, 1999.
4. Z. Do‘simov. Xorazm toponimlari. – T: “Fan”, 1985.
5. <https://kh-davron.uz/>